

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA ERKIN RAQOBAT MUHITINI YARATISH

*Magistr: Boliyev Alisher Sobirjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning samarali yo‘llaridan foydalangan holda erkin raqobat muhitini yaratish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik faoliyati, yashirin iqtisodiyot, eksport faoliyatimoliyaviy qo‘llab-quvvatlash, aholini tadbirkorlikka jalb etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, erkin raqobat muhiti.

Annotation: This article talks about creating an environment of free competition using effective ways to develop entrepreneurship.

Keywords: Financial support for entrepreneurship, hidden economy, export activities, attracting the population to entrepreneurship, supporting local producers, free competition environment.

Аннотация: В данной статье рассказывается о создании среды свободной конкуренции с использованием эффективных способов развития предпринимательства.

Ключевые слова: Финансовая поддержка предпринимательства, теневая экономика, экспортная деятельность, привлечение населения к предпринимательству, поддержка местных производителей, среда свободной конкуренции.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlariga erkin raqobat muhitini yaratish maqsadida ko‘pgina islohotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 dekabrda “Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalari uchun infratuzilma yaratishda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida: 2021 yilda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki

beradigan loyihalar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalari uchun tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish tadbirlariga O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 1 trillion so'm ko'zda tutilgan edi.

Bunndam ko'zlangan maqsad maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarining tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish tadbirlari:

- ichimlik suvi, oqova suv tarmoqlarini hamda avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha – Davlat byudjeti mablag'lari;

- elektr energiyasi va tabiiy gaz tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha – tegishli ta'minotchi korxonalar tomonidan tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq ta'minotchi korxonalariga haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 5 foiz stavkada uch yil muddatda qaytarish sharti bilan ajratiladigan byudjet ssudasi mablag'lari;

- aloqa tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha – ta'minotchi korxonalar tomonidan tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq ta'minotchi korxonalarining hamda tadbirkorlik subyektlarining o'z mablag'lari;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalar va tadbirlarning muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish (ta'mirlash) ishlari bo'yicha – Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

- byudjet ssudasi mablag'lari elektr energiyasi tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari uchun "Hududiy elektr tarmoqlari" AJga hamda tabiiy gaz tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari uchun "Hududgazta'minot" AJga ajratiladi;

- maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarining avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Mamlakatda pul-kredit, valyuta, soliq va tashqi savdo siyosati sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ekspertlarning baholashlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkazilayotgan so'rovlar iqtisodiyotdagi yashirin aylanmaning, ayniqsa, savdo va

umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalarda yuqori darajada saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi, bu esa vijdonli tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazmoqda, ular uchun teng bo'lmagan biznes yuritish shartlarini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish tizimi ishlab chiqildi.

Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish maqsadida Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida eksport hajmlarini ko'paytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tayyor mahsulot yetkazib beruvchilarni qo'shimcha moliyaviy va tashkiliy rag'batlantirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha 2022-yil 1-yanvarga qadar "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" eksport qiluvchilarga, shu jumladan, asosiy faoliyat turi savdo-vositachilik bo'lgan eksport qiluvchilarga ajratilishi ko'zda tutildi va 2022-yil 1-yanvardan boshlab Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi PQ-4337-son "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilishi belgilandi.

So'nggi yillarda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar kelajagimiz" va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami 13 trillion so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyatidan iborat bo'lgan yaxlit tizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida:

- Aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi asosiy yo'nalishlari amaliyotga joriy etilsh:

- aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qiziqishi va manfaatdorligini oshirish;

- aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta'lim tashkilotlarini keng jalb qilish;

- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mikrokreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish;

- aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid ijtimoiy dasturlarni iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'un va muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqish;

- tadbirkorlik ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lgan aholini va boshqa kichik biznes vakillari salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali ular faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan to'laqonli tizimni yaratish;

- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit tizimni tashkil etish va yagona davlat tashkiloti tomonidan amalga oshirilishini va muvofiqlashtirib borilishini yo'lga qo'yish.

- kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlari kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab, ularning sertifikatini (keyingi o'rinlarda – maxsus sertifikat) olgan shaxslarga o'z biznesini tashkil etish uchun mazkur qarorning 5-bandiga muvofiq mikrokredit ajratilishi nazarda tutildi.

Tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etish uchun 33 million so'mgacha bo'lgan miqdordagi mikrokreditlar ta'minotsiz ajratish;

- mikrofirm va kichik korxonalar ta'asis etgan shaxslarga uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulklar garovi, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining kafilligi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ta'minot turlari asosida 225 million so'mgacha miqdorda mikrokreditlar ajratish ko'zda tutildi.

Bunda mikrokreditlar 3 yil muddatgacha 6 oygacha imtiyozli davr bilan Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratiladi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar hamda tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish orqali tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishni moliyaviy manba bilan ta'minlash maqsadlariga 100 million AQSH dollari ekvivalentida mablag' ajratishi belgilandi. Ushbu mablag'larning:

- 9 million AQSH dollari ekvivalenti Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligiga mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun begʻaraz asosda;

- 1 million AQSH dollari ekvivalenti Yoshlar ishlari agentligiga mazkur qarorning 2-bandida nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun begʻaraz asosda;

- 90 million AQSH dollari ekvivalenti maxsus sertifikatni olgan yoshlarga (jami 45 million dollar) va xotin-qizlarga (jami 45 million dollar) kreditlar ajratish uchun “Mikrokreditbank” ATBga 7 yil muddatga 3 yil imtiyozli davr bilan Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz bandga past foiz stavkasida yoʻnaltirilishi aytib oʻtilgan.

“Mikrokreditbank” ATB ushbu mablagʻlarni mazkur qarorning 5-bandida koʻrsatilgan yangicha tartibda mikrokreditlash maqsadlariga yoʻnaltirsin.

Soʻnggi yillarda respublikada ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish, eskirgan, zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni takomillashtirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yoʻnalishlarda olib borilgan ishlar litsenziyalash va ruxsat berish tizimini liberallashtirish hamda institutsional isloh qilishning yangi bosqichini boshlash uchun mustahkam asos yaratdi.

Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish hamda byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun yanada keng shart-sharoitlarni yaratish maqsadida: birinchi bosqichda (2020-yil davomida) – fuqarolar sogʻligʻiga va jamiyatga ziyon yetkazmaydigan litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning ayrim turlarini qisqartirish va tartibga solishning muqobil usullariga oʻtkazish, tadbirkorlik subyektlaridan ortiqcha hujjat talab qilmaslik va ularning vaqt hamda mablagʻlari sarflanishini kamaytirish uchun tartib-taomillarni soddalashtirish, tegishli hujjatlarni berish jarayonlarini toʻliq raqamlashtirish orqali shaffoflikni taʼminlash; ikkinchi bosqichda (2020-2021-yillar davomida) – litsenziyalash va ruxsat berish sohasidagi qonun hujjatlarini tizimlashtirish, davlat xizmatlari koʻrsatishning pasportlarini ishlab chiqish, ayrim turdagi litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar berishning namunaviy maʼmuriy reglamentlarini joriy qilgan holda normativ-huquqiy hujjatlar sonini tubdan qisqartirish.

2021-yil 1-yanvardan boshlab turizm faoliyatini litsenziyalashda turoperatorlar xizmatlarini sertifikatlash ixtiyoriy etib belgilandi;

Quyidagilar bekor qilindi:

- kredit byurolari faoliyatini litsenziyalashda kamida 10 ta tijorat banki bilan kredit almashinuvini amalga oshirishga roziligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi talabi;

- dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalashda ushbu faoliyat uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ularning xuddi shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi filiallari tashkil etilganda har bir filial manzilini asosiy litsenziyada ko'rsatish amaliyotini joriy qilish orqali filiallarga alohida litsenziya rasmiylashtirish amaliyoti;

- yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziya olishda talabgordan mahalliy davlat hokimiyati organlarining kafolat xatlarini olishni talab qilish tartibi.

2021-yil 1-yanvardan boshlab litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari bosqichma-bosqich to'liq elektron tarzda "Litsenziya" axborot tizimi orqali amalga oshiriladi hamda litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish hamda vakolatli organni xabardor qilish haqidagi arizalar va ularga ilova qilingan hujjatlar elektron shaklda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalangan holda Internet tarmog'i orqali qabul qilinishi joriy qilindi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar doirasida 2017-2019-yillarda iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,1 barobarga, shu jumladan, markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga 2,8 barobarga ortgan. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi investitsiyalar ulushi 2016-yildagi 21 foizdan 2019-yil yakuniga ko'ra 38 foizdan ko'proqqa o'sdi. Ushbu davrda tashqi savdo aylanmasi hajmi 1,7 barobarga oshdi. Investitsiyalar va tashqi savdodagi yuqori faollik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining 1,24 barobarga, qurilishning 1,44 barobarga o'sishiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,1 foizdan 33,2 foizgacha o'sdi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari va nomenklaturasini kengaytirish, tarmoqlararo kooperatsiyani chuqurlashtirish va qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishda qo'shimcha qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqobat muhitini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va davlat xaridlari tizimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini kengaytirish maqsadida:

- ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining (kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda – korporativ buyurtmachilar) uchun shunday tartib o'rnatiladiki, unga ko'ra umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 50 ming baravaridan yuqori bo'lgan import tovarlari (ishlar, xizmatlar) xaridlarining maqsadga muvofiqligi har chorakda ro'yxati tasdiqlangan holda kuzatuv kengashlari (ta'sischilarning umumiy yig'ilishi) tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqiladi;

- xorijda ishlab chiqarilgan alohida tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) davlat xaridlaridagi ishtirokini vaqtinchalik taqiqlash va chegaralash mexanizmi kiritiladi;

- Davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) ro'yxatiga kiritilmagan mahsulotlar bo'yicha tender (tanlov) ishtirokchilari takliflarini baholashda xalqaro tajribaga muvofiq mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan import tovarlarining CIP (O'zbekiston) narxidan 15 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda preferensiya beriladi;

- byudjet va korporativ buyurtmachilar rahbarlari xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatini shakllantirishda ularni cooperation.uz portalida ro'yxatdan o'tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o'rganadi;

- korxonalarining kuzatuv kengashlaridagi (ta'sisчилarning umumiy yig'ilishlaridagi) davlat vakillari boshqaruv organlari majlislarida umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 50 ming baravaridan yuqori bo'lgan import tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlarining asoslanganligiga oid masalalarning ko'rilishini ta'minlaydi, bunda ishlab chiqarish zaxiralaridagi import tovarlarining omborlardagi qolgan qismini ularning korxonalar faoliyatiga jalb qilinishi bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llagan holda tahlil qiladi;

- Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi har oyda import bo'yicha olib kelinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmi va nomenklaturasini tahlil qiladi, shuningdek, tarmoqlar, korxonalar va hududlar rahbarlari tomonidan importni optimallashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini baholab, ularni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

- Moliya vazirligi byudjet tashkilotlarining kelgusi davr uchun xarajatlar smetasini kelishishda xarajatlar shakllanishini, shu jumladan, cooperation.uz portali ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda tovarlar qiymatini aniqlash orqali nazorat qiladi;

- Hisob palatasi har chorakda import xaridlarini amalga oshirishda davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar hamda korporativ buyurtmachilarning jalb qilingan va o'z mablag'lari maqsadli va samarali sarflanishini tahlil qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha yordamchilari respublikaga import qilinayotgan tovarlar hajmi va nomenklaturasi haqidagi statistik ma'lumotlar asosida hududlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, shuningdek, tegishli hududlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni cooperation.uz portalida to'liq joylashtirilishini ta'minlaydi;

- Davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarining (xizmatlarning) ro'yxatini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomini tasdiqlash; davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) preferensiyalar berish tartibi to'g'risidagi nizomini tasdiqlash;
- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi bilan birgalikda cooperation.uz portalida respublikada ishlab chiqarilayotgan barcha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning texnik ko'rsatkichlari 10 ta raqamli TIF TN kodi va ishlab chiqaruvchilarga bog'lanish ma'lumotlari bilan birgalikda joylashtirilishini hamda muntazam ravishda yangilab borilishi; cooperation.uz portalining Tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axborot tizimi (TSOYAEAT) va Davlat xaridlarining maxsus elektron portali (xarid.uz) bilan integratsiyasini ta'minlasin;
- Davlat bojxona qo'mitasiga davlat xaridlari doirasida yetkazib berilayotgan import tovarlari narxlari monitoringini "tahlika-tahlil" usullari, shuningdek, "ko'zguli statistika" ma'lumotlaridan foydalangan holda kuchaytirish hamda tovarlar narxini pasaytirib olib kirilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha yuklangan funktsiya va vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash;
- "O'zstandart" agentligi tomonidan sifatsiz, sertifikatlanmagan va qalbaki, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi (YEI) va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqida (YEOII) xavfli mahsulotlar haqida tezkor xabar berish axborot tizimlariga kiritilgan, YEI va YEOII mamlakatlariga olib kirish taqiqlangan mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligi va olib kirilayotganligi to'g'risidagi axborot tizimini joriy etsishi;
- Davlat bojxona qo'mitasi bilan birgalikda **2021-yil 1-yanvardan** xorijiy mamlakatlarda xavfli mahsulotlar haqida tezkor xabar berish axborot tizimiga kiritilgan mahsulotlarni "erkin muomalaga chiqarish uchun" bojxona rejimiga rasmiylashtirishga taqiq kiritilishi;
- **2021-yil 1-yanvarga qadar** xalqaro, mintaqalararo va xorijiy standartlarni ularning asl tilidagi mahsulotga talablarni o'zgartirmasdan xuddi shunday ko'rinishda qabul qilish orqali, 1995-yilgacha tasdiqlangan 5 236 ta standartlar "**tartibga soluvchi gilyotina**" usulida bekor qilinishini ta'minlanishi belgilab qo'yildi.

Xulosa

Yuqorida sanab o'tilgan islohotlar, ulardan ko'zlangan maqsad va ko'rsatkichlarga tayanib xulosa qiladigan bo'lsak bularning bari tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va ularni faoliyatini nuqsonlar va qiyinchiliklarsiz yo'lga qo'yishini qo'llab-quvvatlash harakatidir. Faqatgina bulardan oqilona foydalanib qolish kerak xolos. Natija Respublika iqtisodiy rivojiga hissa qo'shish va o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yib uni rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020 “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” DUK tahririyati gazetolari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-son Qarori.
4. Ayranci A.E. & Ayranci E. (2015). A Research on Job Satisfaction Factors of Private Entrepreneurs: The Case of Beylikduzu Organized Industrial Zone. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*. 268 – 277.
5. Celik, A. & Akgemici, T. (2007). *Girisimcilik kulturu ve Kobi'ler [The culture of entrepreneurship and SMEs]*. Ankara: Gazi Publications.
6. <http://parliament.gov.uz/uz/events/committee/23612/>.
7. <http://stat.uz>.
8. <http://uza.uz/oz/politics>.
9. <http://www.doingbusiness.org/data>.
10. <https://uzlidep.uz/news-of-party/3976>.
11. Smallbone, D., Piasecki, B., Venesaar, U., Todorov, K. & Labrianidis, L. (1999). Internationalization and SME development in transition economies: An international comparison. *Journal for Small Business and Enterprise Development*, 5(4), 363–375.